

## ОYOQ PANJASINI GANCH NUSXASINI HOSIL QILISH

Djurayeva M.I.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, "Charm buyumlari texnologiyasi va dizayni" kafedrasi assistenti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ommaviy poyabzal ishlab chiqarish sharoitida oyoq panjasini ganch nusxasini hosil qilish to‘g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** ganch nusxasi, oyoq panjasasi, ommaviy poyabzal, tibiy poyabzal, yassitovonlik, anatomo–morfologik, qolip, ganch-nusxa.

Xalq iste’mol buyumlari ishlab chiqaruvchi engil sanoati oldiga, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, iste’molchilarni sifatli, arzon va raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta’minlash vazifasi qo‘yilgan.


Davr talablaridan kelib chiqib tikuvchilik, poyabzal va charm-attorlik mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalarida buyumlar assortimentlarini yangilash, kengaytirish, ularning sifatini yanada yaxshilash hamda yangi, zamonaviy ma’sulot turlarini ko‘proq ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

Keyingi yillarda patologik nuqsonlardan biri bo‘lgan yassitovonlik kasaliga uchraganlar soni ko‘paygani kuzatilayapti. Bunga sifatsiz va noqulay poyabzal ham sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun sifatli va qulay, tibbiy poyabzallar ishlab chiqarish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Agar poyabzallarni shaxsiy buyurtma asosida tayyorlanganda bu muommo o‘z kuchini yo‘qotgan bo‘lar edi. Ommaviy poyabzal ishlab chiqarish sharoitida oyoq panjasining tuzilishini o‘rganish kifoya qilmay, balki iste’molchilarning oyoq panjasining o‘lchamlarini ham bilish kerak.

Oyoq panjalarini anatomo – morfologik tuzilishini tabiiy holda saqlash va ularni vazifalarini to‘g’ri bajarishga erishish faqat atrof muhitni zararli ta’siri(shikastlanish, harorat va namlik)dan himoyalash yo‘li bilan amalga oshirish mumkin. Va bu himoya vazifani asosan poyabzal lar amalga oshiradi. Bu mahsulotlarning sifatini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkichi ularning o‘lcham va shakli, oyoq panjalarining o‘lcham va shakliga mosligidadir.

Ganch nusxa yordamida oyoq va qo‘lni o‘rganish diskret va analog ma’lumot olishga imkon beradi. Buning uchun namligi 6 % dan oshmagan, kukun tarzida bo‘lgan quruq ganch, suv bilan aralashganda qaymoqday kotsentratsiyaga ega bo‘luvchi, qotish davri 5-8min bo‘lgan ganch ishlatilish tavsiya etiladi. Ganch nuxsani olishdan oldin oyoq va qo‘lning butun yuzasiga, ayniqsa tukli joylariga yaxshilab vazelin surib chiqiladi. Ganch (4 og’irlik qism) va suv (3 og’irlik qism) qorishmasini bir xil massa bo‘lguncha tez aralashtirilib, oldindan tayyorlangan maxsus qutichaga quyiladi. Ganch qorishmasi qutichaning taxminan 40mm.cha balandligini egallashi kerak. Aralashma ozroq quyuqlashganda vazelin surilgan oyoq panjasini 15-20mm.ga, qo‘l panjasini esa 8-10mm.ga qorishmaga botiriladi. Ganch qotgandan so‘ng panja chiqarib olinadi va hosil bo‘lgan negativ1ga (1,a- rasm) ishlov beriladi, ya’ni ustki gorizontal yuzalari va negativning tashqi yon tomonlari pichoq bilan tekislanadi.



## **1-rasm. Oyoq panjasini ganch nusxasini hosil qilish va izini olish sxemasi**

Tadqiqot maqsadiga muvofiq oyoqni to‘piq yoki yuqoriroq qismiga (rasmda ko‘rsatilgandek) qalin kapron yoki kanop ip boylab, uzunligi 35sm.ga yaqin uchini barmoqlar tomoniga, yana bitta ipni esa – tovon tomonga yo‘naltirib qo‘yiladi. Bu iplar ganch nusxani ustki bo‘lagini ikki qismga ajratishga xizmat qiladi. Panjaning pozitivini olish uchun, tayyorlangan qaymoqsimon ganch aralashmasini negativ ichiga ohista quyish lozim. Ganch qotgandan keyin, negativ qismlari sekin ajratib olinadi va ganch nusxa (pozitiv) hosil bo‘ladi (1,b-rasm).

Yuqorida ketirilgan usuldan tashqari kam mehnat va material sarf bo‘ladigan longet usuli ham ishlatalishi mumkin. Unda tibbiyot (meditsina) da ishlataladigan ganch taxtakach (boylagich), ya’ni dokali longet yordamida negativ olinib, pozitiv esa yuqorida keltirilganday amalga oshiriladi (1,v,g-rasm).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Джураева М. И. Научное обоснование разработки конструкции детской ортопедической обуви //Вестник науки. – 2022. – Т. 4. – №. 3 (48). – С. 176-182.
2. Джураева М. И. Стельки для профилактической обуви и модели ортопедической обуви новых конструкций //Вестник науки. – 2021. – Т. 3. – №. 9. – С. 34-37
3. Узакова Л. П. и др. Исследование характера изменения формы и размеров стопы в зависимости от положения и нагрузки у детей, имеющих патологические отклонения //Молодой ученый. – 2015. – №. 19. – С. 223-225.
4. Узакова Л. П. Медицинские показания к назначению сложной ортопедической обуви //Вестник науки. – 2021. – Т. 3. – №. 9. – С. 51-53.
5. Узакова Л. П., Жабборов Ю. Ю. Научные исследования по разработке оптимальной конструкции подошвы обуви для спортсменов конного спорта //вестник магистратуры. – 2021. – С. 9.